



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**2025
YIL**

**“Atrof-muhitni asrash va “yashil”
iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi**





Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumir Mirzayeva
Qozog'boy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimayram RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA
Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Ibodotxon Rustamova. Hikoyada Roviylar funksiyasi.....3
Saodat Kambarova. Adabiyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalarni o'qitish mezonlari.....5
Nodiraxon Erkaboyeva, Zokirjon Isaqov. Darsliklar – hayotiy ta'lim berish vositasi.....9
Jamila Djumabayeva, Dilnoza Kurbonova. Integrating the 4Cs into EFL classrooms.....11

Tilshunoslik

Feruza Abduraximova. O'zbek tilida so'z yasallashining taraqqiyot yo'li.....17
Muhtabar Sanoyeva. Matnni yaratishga yo'naltirilgan tizimli grammatik topshiriqlar ustida ishlash.....19
Javlon Ibragimov. Nolisaniy vositalarning so'roq gaplarda namoyon bo'lishi.....22
Madixabonu Pardayeva. Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so'zlar tahlili.....25
Alisher Parmonov. O'zbek va rus tillarida olam lisoniy manzarasining kinoyaviy ifodasi.....27
Ikram Xudaynazarov. Akademik yozuv va uning rivojlanishi.....30

Adabiyotshunoslik

Zilola Eshanova. Halima Xudoyberdiyeva ijodida baxshiyona....34
Shaxnoza Norkulova. Sayyid Qosimiy

"Haqiqatnoma" sining mazmuniy halqasi va tarbiyaviy ahamiyati.....37
Gulhayo Haydarova. XX asr g'azaliyotida poetika muammolari.....39
Go'zal Atabayeva. Omon Muxtorning obraz yaratish mahorati.....43
Akram Hamdamov. Hasad motivi va hasad muammosi.....45
Laylo To'rayeva. Asad Gulzoda she'riyatida mehnatkash xalq obrazi va ularga munosabat ifodasi.....47
Fanuzo Adilova. Xayriddin Sulton qissalarida obrazlar tabiati tahlili.....50
Нигора Каримова, Юлдузхон Атакулова. Влияние народной прозы на творческий почерк В. Распутина и Х. Дустмухаммада.....52
Татьяна Половинкина. Художественное своеобразие сборника А. Волоса «Рассказы из пиалы»55
Masuda Takhirova. Truncated constructions in the text of fictional essay "Salyr-gul".....57

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Farxod Xalilov, Nigoraxon Akbarova. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish va tarbiya borasida sharq allomalarining o'g'itlari.....60
Ibodulla Uzakov. Ta'limda virtual pedagogikaning o'rni.....62
Nuriddin Esanov, Zarina Samatova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan **Filologiya, Pedagogika** hamda **Psixologiya** fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>*

shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari.....	64
Go'zalxon Yoqubjonova. Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish.....	66
Maftuna Toshtemirova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kooperatsiyasi (hamkorlik) kompetentsiyasi: komandada ishlash ko'nikmalari.....	68
Наргиза Ходжаева. Современные методы и приемы формирования критического мышления у студентов-филологов.....	70
Сабина Смирнова. Коммуникативная компетенция и критерии ее сформированности у будущих преподавателей русского языка и литературы.....	73
Валижон Садиев. Модель совершенствования педагогических условий развития патриотических качеств учащихся в условиях трансформации.....	75
Дмитрий Пупонин. Методическая организация занятия по изучению творчества В. Пелевина с использованием технологии развития критического мышления.....	80
Дилафруз Садикова. Перспективы внедрения инновационных технологий в развитие системы образования.....	82
Юлия Матенова. Символика заглавия повести Э.-Э. Шмитта «Дети Ноя».....	84
Safiya Sadriddinzoda. Semantic field of religious lexicology of russian language.....	86
Gavhar Salomova. Features of abbreviations in the english language.....	88

Tadqiqot

Nodira Sanoyeva. O'rta maktab ona tili darsliklarida berilgan grammatik bilimlarning tavsifi.....	91
Dildora Nizomiddinova, Mahfuza Ahmadjonova. Tarixiy asar "Boburnoma"da toponimlar talqini.....	93
Zarina Saidova. Ibn Sino Sharq va G'arb yozuvchilarining asarlarida.....	96
Mahzuna Qodiriy. Abdulla Qodiriyning " O'tkan kunlar" asarida hikmatli so'zlarning qo'llanishi.....	98
Nilufar Najmiddinova. O'zbek tilining izohli lug'atida haqorat so'zlarning berilishi hamda ularning lingvistik ekspertiza o'tkazishdagi o'rni.....	100
Gulmira Zulaypoyeva. Iqbol Mirzo idiosstilida xiazm.....	103
Farida Xakimova. Shodmonqul Salomning "Odam bo'l" qatradi badiiyati.....	104
Muhayyo Azimova. "Giperbola va meyozi konseptual semantikasi" fonomorfemik, leks(em) ik va frazemik verbalizatorlari struktural turlarining tipologiyasi.....	106
Farida Abduraximova. O'zbek adabiyotida "taqdir"	

konsepti.....	108
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy ijodining o'rganilishiga doir.....	110
Gavhar Jo'rayeva. A'zam O'ktam ijodida o'ziga xoslik.....	113
Shaxnoza Yunusova. Reklama matnlarida gap qurilishi.....	115
Nilufar Saidova. Reklama matnlarining tarjima jarayonidagi stilistik xususiyatlari va ularning o'zaro ta'siri.....	117
Oqiljon Mavlonov, Shohruxbek Jumaboyev. Ko'hkan naqbzanim yo naqbkkan yoxud xamiri moyai jismingdin ortqonni qazo.....	121
Zulfiya Fayzullayeva. Publitsistning til birliklaridan foydalanish mahorati.....	124
Gulrux Bekbayeva. "Ezgulik" konseptining badiiy matndagi pragmatik talqini.....	127
Zulayxo Nishanova. Ispan tilini o'rganish jarayonida madaniyatning roli: lingvistik va antropologik asoslar.....	130
Dilorom Xurramova. O'zbek va koreys tillaridagi taqlid so'zlarning struktur xususiyatlari.....	133
Shohista Tojiboyeva. "Informatsion-analitik kompetentlik" tushunchasining mazmuni hamda ta'limdagi o'rni.....	136
Feruza Jalolova. Pedagog xodimlarda rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish bosqichlarining xalqaro tajribasi.....	138
Shoxidaxon Botirova. Akvarelist manzarachi rassomlar.....	141
Руслан Сариев. Концепция времени и пространства в романе Евгения Водолазкина «Оправдание острова».....	143
Лариса Половина. Роль грамматических вопросов при синтаксическом анализе предложения.....	145
Nazokat Davletyarova. Solutions to the problems encountered in the translation of scientific texts with international students.....	147
Sabokhon Sharipova. Linguistic and extralinguistic factors in neologisms and their use in media discourse.....	150

Pedagogika

Sojida Najiyeva. Kredit-modul ta'lim tizimining o'ziga xosligi.....	152
Farxod Tashpulatov. Talaba yoshlarga yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi va taktikasini o'rgatish.....	154
Nuriddin Sangirov. Talaba-yoshlarga voleybol texnikasi va taktikasini o'rgatish usullarini takomillashtirish.....	156
Axmad Muxametov. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida yuklamalarni me'yorlashtirishning ilmiy-metodik	



asoslari.....	159
Faxriddin Karimov. O'rta yoshdagilarning jismoniy sifatlarini hisobga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish.....	162
Leyla Seydaliyeva, Nurxon Xushvakov, Sabohon Abdullayeva. Ommaviy sport turlarida jismoniy mashqlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri.....	164
Maxmud Babayarov, Mehrinoz Toshboltayeva. Sport sohasida perifriza vositasida madaniy axborot yetkazish.....	167
Rokiya Mavlyanova. Ta'lim-tarbiyani tashkil etishda sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.....	170
Musharraf Sultanova. Badiiy gimnastika mashqlari yordamida talaba qizlarni egiluvchanligini oshirish va takomillashtirish.....	172
Munisa Toshboyeva. Paradyudoda texnik-taktik harakatlarga tezkor o'rgatish usullarini takomillashtirish.....	175
Axror Djabbarov. Biomexanik tahlil asosida yadro itqitish texnikasini takomillashtirish samaradorligi...178	
Ilxam Sahaniyazov. Hujum taktik harakatlarini amalga oshirishda yosh futbolchilar jismoniy holatlarining ahamiyati.....	181
Tokhira Islamova. Educational technologies are creating new opportunities in teaching.....	184

Psixologiya

Zilola Turdiyeva. N.Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasida psixologizm muammolari.....	187
Shohista Tohirjonova . Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri: psixolingvistikada tadqiqot olib borish muammolari.....	189
Gulbahor Kuldashaeva. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun muhofaza va yordam xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	191
Gulnoza Tulyaganova. Shaxsning individual imkoniyatlarini rivojlantirishda psixologik yondashuv.....	193
Abdulhaq Abdulhayev. O'smirlar va ota-ona o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasi: yechimlar va takliflar.....	195

Xolida Ubaydullayeva. Yuridik diskursning dolzarbligi.....	197
Muxlisa Sheraliyeva. Yoshlar orasida slenglardan foydalanishning psixologik xususiyatlari.....	200

Kichik tadqiqot

Musharraf Abdulxayeva. Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni rivojlantirish usullari.....	202
Dilafro'z Ziyadullayeva. Vatan va millat obrazi - yozuvchi badiiy niyati sifatida.....	203
Farhod Qiyomov. Sa'diy Sheroziy—sharq adabiyotining yirik vakili.....	205
Najibullo Sayfullayev, Shahnoza Mirzayeva. O'zbek tilida frazeologik birikmalarining qo'llanilishi.....	207
Sadoqat Ergashova. Ijodkorning ramz qo'llash mahorati.....	209
Nigora Rahimova. Jarohatni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning ingliz va o'zbek tilida semantik xususiyati.....	211
Sayyora Hojiyeva. Anvar Obidjon asarlarida xalqona ruh tasviri.....	213
O. F. Achilova. Muloqot matnida maqollarni faollashtiruvchi omillar.....	215
Сабина Юлдашева. Семантическая классификация адвербиальных фразеологических единиц в русском языке.....	217
Зухро Хамраева. Обоснование технологии физического совершенствования студенток средствами занятий бадминтоном.....	219
Elbek Eshmuminov. Hemingway's contributions to Lost Generation.....	222
O'tkir Pardayev. Hemingway and the Power of Names: An Onomastic Approach to His Fiction.....	224
Sevinch Bobokholova. The importance of reading materials in the development of writing competency.....	226
Sevinch Muradulloyeva. Effective methods for teaching english speaking skills to adults.....	229
Mukhabbat Turgunboyeva, Mukhabbat Yusupova. The role of modern corpus linguistics technologies in developing esl students' speaking skills.....	231

Nodira SANOEVA
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi
coouotvvo@gmail.com

O'RTA MAKTAB ONA TILI DARSLIKLARIDA BERILGAN GRAMMATIK BILIMLARNING TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada amaldagi ona tili darsliklari maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ularning lug'at boyligi, og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish, mashq va topshiriqlarning evristik yondashuv (matn yaratishga yo'naltiruvchi o'quv-topshiriqlar tizimi) ga asoslanishi kerakligi to'g'risida fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, ona tili ta'limi mazmuni va ularning til ta'limida tutgan o'rni atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, ijodiy faoliyat, og'zaki va yozma nutq.

Abstract: in this article, mother tongue coursebooks are used to increase the knowledge, skills and abilities of schoolchildren, to develop their vocabulary, verbal and written literacy, heuristic approach to exercises and tasks (teaching tasks that guide text creation system) have been put forward. Also, the contents of mother tongue education and their role in language education are covered in detail.

Keywords: communicative competence, creative activity, verbal and written speech.

Аннотация: в данной статье актуальными являются школьные учебники родного языка. Для повышения знаний, умений и навыков учащихся, развития их словарного запаса, устной и письменной речевой грамотности упражнения и задания должны быть основаны на эвристическом подходе. Также подробно раскрыто содержание обучения родному языку и его роль в языковом образовании.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, творческая деятельность, устная и письменная речь.

Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki odamlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob izlaganlar va izlamoqdalar.

Jumladan, ushbu masala til ta'limida ham hamon dolzarbligicha qolmoqda. Pedagogika va ona tili (metodikasi) fanlarining so'nggi yillardagi yutuqlariga tayanilgan holda biz ta'lim mazmunini quyidagi tarkibiy qismdan iborat deb tushunamiz:

1) o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi. Ona tilidan bilimlar tizimi deganda, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushuncha, qoidalar, til faktlari tushuniladi. Ammo, darsliklardagi barcha til ilmini to'liq o'zlashtirishning imkoni yo'qligi sababli, ularni o'quvchi uchun foydali va amalda qo'llashi jihatdan saralash ona tilidagi bilimlarni tanlashning bosh mezoni hisoblanadi. Bolalarning savodli yozishi, ijodiy fikrlashi, fikr mahsulini adabiy til me'yorlariga asosan og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon ifodalashi, qolaversa, ularda yuksak insonparvarlik xususiyatlarini

shakllantiradigan bilimlar ona tilidagi foydali bilimlar mazmunini tashkil etadi. Aynan bugungi yangi ona tili darsliklari oldiga ta'lim oluvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham tarzda yoritish, og'zaki va yozma nutqni ifodalashda mantiqiy izchillikka erishish kabilar maqsad qilib qo'yilgan. Ammo, o'rta maktab o'quvchilari uchun tuzilgan eski darsliklar tinglovchiga ko'proq nazariy bilim berish, egallangan bilimlarni ijtimoiy hayotda emas, shunchaki faqat dars va sinovlarga tatbiq etish, zamonaviy texnologiya va ilg'or pedagogik prinsiplardan xoli holda yaratilgan edi. Ta'lim mazmunining birinchi tarkibiy qismi bo'yicha Nizomiddin Mahmudov va boshqalar (Toshkent – 2017) muallifligi asosida tuzilgan hamda hozirda amalda bo'lgan Iroda Azimova va boshqalar (Toshkent – 2022) ning umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 6-sinflar uchun tuzilgan "Ona tili" darsliklaridan ayrim namunalar keltiramiz:

1. To'g'ri yozilgan so'z va birikmalarni ko'chiring.

maqtanchoqlik	maxtanchoqlik
havo	xavo
¹ Гулом shovir	munni - shoir
peshma pesh	peshma-pesh
Savodim chiqqach	Savodim chiqqach

Imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan ushbu mashqni bajararib o'quvchi ham orfografik bilimlarini boyitish bilan birga, berilgan so'zlarning orfoepik xususiyatlarini ham o'rganib boradi. Shuningdek, o'quvchilarga reklama bannerlari va ijtimoiy tarmoqlardagi xato yozilgan so'zlardan misollar topib kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin. Aytish joizki, imlo lug'atiga tayanib bajariladigan mashq va topshiriqlar tizimining berilishi, o'quvchini leksikografik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Darsliklardagi mashqlar uchun berilgan gap va matnlar o'quvchi ongi va saviyasiga mos holda tanlanib, undagi ba'zi maqol va hikmatli so'zlar, ta'lim oluvchida yuksak insonparvarlik xususiyatlarining takomillashuvi uchun ibrat vazifasini o'taydi. Misollar:

150-mashq. Nuqtalar o'rniga sifatdosh yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring. Sifatdoshlarning yasashiga diqqat qiling.

1. *Bilmaslik ayb emas, bilma...ini bo'yniga olmaslik ayb.* 2. *O'z o'rnida aytilma... so'z hech kim yo'q yerda chalin... kuyga o'xshaydi.* 3. *Arslondan qo'rq... dan ko'ra, o'z nafsidan qo'rq... foydaliroq.*

Ushbu maqol va matallar xalq orasida keng qo'llanilishi bois o'quvchi ularni yoddan biladi va natijada o'rganilgan nazariy bilim tinglovchi uchun oson bo'lgan paremiologik birliklar orqali mustahkamlanadi.

2) *ta'lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismi tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga mos amaliy ko'nikma va malakalar tizimidir.*

Darsliklar faqat o'quvchilarning ona tilidan bilishi kerak bo'lgan mavzular bilan emas, balki ularning amaliy jihatdan bajararishi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini ham qamrab olishi kerak. Misol:

Intervyu savollarini tayyorlang. Tasavvur qiling, siz teleboshlovchisiz. Siz boshlovchilik qilayotgan ko'rsatuvga shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov kelgan. Ko'rsatuvingiz tomoshabinlarga manzur bo'lishi uchun chiroyli suhbat tashkil etishingiz kerak. Shu sababli Nodirbek uchun mazmunli savollar tuzib, yozing.

Ko'rinadiki, ushbu topshiriqni bajarish o'quvchida so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash, fikrini erkin bayon qilish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

3) *ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi o'quvchini ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish.* Ushbu faoliyat 3 qism (qayta xotirlash, qisman ijodkorlik, ijodiy daraja) dan iborat bo'lishi mumkin.

Qayta xotirlash faoliyati egallangan bilimlarni eslash, darslikdagi namunaga qarab bajarish va o'qituvchi yordamiga tayanib bajariladigan faoliyatdir. Bu o'quvchining faollik darajasini chegaralaydi. Chunki bola tayyor materiallar bilan qurollangan bo'ladi. Misol:

188-mashq. Gaplarni ko'chiring, nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini

qo'yib, fe'llar hosil qiling va ularning yasashini izohlang.

Odobli va adolatli inson qo'lidagi qalam baxt-saodat uchun xizmat qilib yurgan odamlarni zavq... (-la, -ir, -lan) tiradi, bir-biriga yaqin...(-sa, -lash, -man) tirib, do'stlikni mustahkam... (-sira, -la, -y) di. (H.Ziyojev).

Faollikning ikkinchi bosqichi qisman ijodkorlik faoliyatidir. Bu bosqichda o'quvchi ma'lum yordamga asoslangan holda, til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi. Masalan,

Topshiriq. Berilgan sanoq sonlarga -tacha, -lab, -larcha qo'shimchalarini qo'shing. Ma'noda qanday o'zgarish bo'lganini ayting.

Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, yuz, ming.

Faollikning uchinchi bosqichi ijodiy faoliyatdir. Ushbu bosqichda o'quvchi hech qanday yordamsiz olgan bilimlarini yangi sharoitda qo'llay olishi, faoliyati uchun zarur bo'lgan, ammo o'zida bo'lmagan bilimlarning manbasini bilishi, bu manbalardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi. Misol:

Mavzu: Ravish. **1-topshiriq. Berilgan so'z birikmalaridagi belgi ifodalaydigan so'zlarni narsaning yoki harakat-holatning belgisini bildirishiga ko'ra farqlang.**

Tonggi shabada, sekin yurmoq, quvonchli xabar, tez o'qimoq, a'lo kayfiyat, atayin gapirmoq.

Ushbu topshiriq orqali tinglovchi ongida hali tushuntirilmagan mavzu borasida tushuncha paydo bo'ladi, ya'ni sifat va ravish so'z turkumlari orasidagi farqini anglaydi. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan samarali tashkillashtirilsa, o'quvchilarda ona tili faniga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

4) *Ta'lim mazmunining to'rtinchi muhim tarkibiy qismi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlardir.* Davr talabi bo'lgan ushbu jarayon bilan bog'liq darslar til ta'limida muhim rol o'ynaydi. Bola (o'quvchi) bilan ishlash mobaynida ularning nafaqat nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirish, balki kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda, savollarga javob berish malakasi bilan birga to'g'ri savol tuzishga yo'naltirishda ham o'qituvchining o'rnini beqiyos. Bundan tashqari, ona tili ta'limi mazmunida ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash maqsad qilingan ekan, bu boradagi talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yaxshi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.

2. Darsni o'quv topshiriqlaridan o'rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.

3. O'quvchilarning bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish.

4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlar aro bog'lanishni e'tiborda tutish.

5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog'lanish, o'quvchilarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.

6. Shaxsning muloqot uchun zarur bo'lgan nutqiy malakalarini rivojlantirish, natijalariga ko'ra rag'batlantirish va faollashtirish.

7. O'quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionalligi mezonlarini hisobga olish.

8. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish.

9. O'quv topshiriqlarini o'quvchilarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog'lash.

10. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko'zda tutish.

11. O'quv topshiriqlari o'quvchida bilim olish, fikrlash, nutqiy ko'nikmalarni egallashtirish, o'zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, amaldagi dastur va darsliklar ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq o'quvchini mustaqil izlanishga undashi, tilning boy imkoniyatlaridan o'rinni foydalanib, ularni amalda qo'llay olishi, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda lug'at boyligini oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlardan iborat bo'lishi zarur. Zero, maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik – Toshkent, 2022.
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – Toshkent, O'qituvchi. 1998. B.31
3. Hamroyev G'.H. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2022.
4. Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6 - sinfi uchun darslik – Toshkent: Tasvir, 2017.
5. To'xlijev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi – Toshkent, 2010.
6. G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni – Toshkent, Uqituvchi. 1995. B.5

Dildora NIZOMIDDINOVA

Qo'qon DPI o'qituvchisi

Gmail: dildoraxonnizomiddinova@gmail.com

Mahfuza AHMADJONOVA

Qo'qon DPI o'qituvchisi

E-mail: ahmadjonovam1978@mail.ru

TARIXIY ASAR “BOBURNOMA”DA TOPONIMLAR TALQINI

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida zikr qilingan toponimlar – aholi maskanlari, suv havzalarining nomlari, relefni ifodalovchi joy otlari kabilar xususida fikr yuritiladi, o'rni bilan ulardan ba'zilarining anglatgan ma'nosi, kelib chiqishi, etimologiyasi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: joy nomi, toponim, oykonim, gidronim, oronim, etnooykonim, antropotoponim, etimologiya, xalq etimologiyasi, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam.

Аннотация: в статье рассматриваются топонимы, упомянутые в «Бобурноме» Захириддина Мухаммада Бабура - названия населенных пунктов, водоемов, топонимы, представляющие рельеф, значение, происхождение и этимология некоторых из них.

Ключевые слова: топоним, топоним, ойконим, гидроним, ороним, этноойконим, антропотопоним, этимология, народная этимология, собственный пласт, освоенный пласт.

Annotation. the article discusses the toponyms mentioned in Zahiriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" - the names of settlements, water bodies, place names representing the relief, the meaning, origin and etymology of some of them.

Key words: place name, toponym, oykonim, hydronym, oronym, ethnooykonim, anthropotoponym, etymology, folk etymology, own layer, mastered layer.

Kirish. O'zbek adabiy tilining muhim yodgorligi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»